



UDK: 821.512.133-1

Minhojiddin HOJIMATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: Minxojiddinhojimatov@gmail.com

O'zDXA dotsenti, f.f.d H.Hamroyeva taqrizi asosida

“INTERPRETATION OF THE SPIRIT OF NATIONAL IDENTITY AND THE IDEOLOGY OF INDEPENDENCE IN THE WORKS OF ERKIN VOHIDOV”

Annotation

Since ancient times, the feeling of national identity has played an important role in the spiritual growth of every nation striving for high development, in the formation of national independence thinking, and in gaining a respectable place and influence in the world community. This article explores the spirit of national identity and its poetic expression in the works of the prominent poet Erkin Vohidov.

Key words: national spirit, human destiny, artistic thinking, awakening poem, power of identity, aesthetic ideal, breath of history, The Land of the Sun, East and West, eastern shore, value.

“ТОЛКОВАНИЕ ДУХА НАЦИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ И МЫШЛЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭРКИНА ВОХИДОВА”

Аннотация

С древнейших времён чувство национальной самобытности играет важную роль в духовном возвышении каждого народа, стремящегося к высокому развитию, в формировании мышления национальной независимости, а также в обретении своего места и авторитета в мировом сообществе. В данной статье исследуется дух национальной самобытности и его поэтическое выражение в творчестве выдающегося поэта Эркина Вахидова.

Ключевые слова: национальный дух, человеческая судьба, художественное мышление, пробуждающее стихотворение, сила самосознания, эстетический идеал, дыхание истории, “Обитель Солнца”, Восток и Запад, восточный берег, ценность.

“ERKIN VOHIDOV IJODIDA MILLIY O'ZLIK RUHI VA ISTIQLOL TAFAKKURI TALQINI”

Annotatsiya

Azal – azaldan har bir millat, yuksak taraqqiyot sari intilayotgan xalqning ma'naviy yuksalishi, milliy istiqlool tafakkuri shakllanishida, dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lishida milliy o'zlikni anglash tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada atoqli shoir Erkin Vohidov ijodidagi milliy o'zlik ruhi va uning poetik ifodasi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy ruh, inson qismati, badiiy tafakkur, uyg'otuvchi she'r, o'zlik qudrati, estetik ideal, tarix nafasi, “Quyosh maskani”, Sharq va G'arb, sharqiy sohil, qadriyat.

Kirish. XX asrning oltmishinchi yillari adabiyotda boshlangan milliy o'zlikni anglash istagi millionlab yuraklarda milliy ruh, istiqlool sog'inchini uyg'ota boshladi. Bu davrda Erkin Vohidov kabi otashnafas shoirlarning jamiyat va adabiy jarayonga faol aralashuvi, milliy o'zlik tuyg'usi, vatanga muhabbat va sadoqatni tarannum etuvchi she'rlari o'zbek adabiyoti masalalarini jahon adabiyoti kontekstida talqin va tadqiq etishga zamin yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Atoqli adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, “Erkinning talanti avvalo shunda ko'rinadiki, u shoirlikning eng zarur xislatiga – shoirona tafakkur qilish, obrazlar bilan o'ylash qobiliyatiga ega. U, ko'pincha biron oddiy buyumni oladiyu, shu orqali chuqur ma'noli, jiddiy fikrlarni ifodalaydi”[1]. Ayniqsa, vatanparvarlik, milliy o'zlik tuyg'usi uning she'rlarida uning she'rlarida o'ta jozibador, o'ta yorqin namoyon bo'ladi. Zero, har bir millat, komillik sari intilayotgan xalqning ma'naviy yuksalishi, ma'rifiy taraqqiyotida milliy o'zlikni anglash tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda global integratsiyalashib, madaniyatlar inqirozga yuz tutayotgan paytda milliy o'zlik tushunchasini keng targ'ib va tahlil qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. E.Vohidov ilk mashqlaridanoq she'riy idroki, badiiy tafakkuri yuksakligi bilan e'tirof topdi. “Yo'q, halovat istamayman” (1960) she'rida “To'lqin urgan ummoncha bor, Yurakdagi tug'yoni” deb hayqirgan E.Vohidov komillik sirlarini anglash, e'tiqod va adolatning ustuvorligiga erishish uchun nafs qayg'usidan kechib, ayovsiz girdoblar bilan kurashish kerakligini vijdon amri va yurak tug'yoni ila his qiladi: Bo'ronlarga, dovullarga peshvoz yurgim keladi.

Jamiyatdagi nohaqlik, achchiq haqiqat, millat va yurt taqdiri bo'ronlar, dovullar timsolida shoir qalbini iztirobga soladi. Muallif inson hissiyotlarining ufqlar kengligida ko'rishni istaydi, bo'ronlar va dovullar tilini topishga, ziddiyatlarni tushunishga urinadi. Aynan ana shu yangi she'riyat tufayli qatag'onlar davri, Ikkinchi jahon urushidan keyin, shaxsga sig'inish yillarida tamomila o'zligidan yiroqlashtirilgan, ma'naviyat, milliy axloq asosi bo'lgan dinidan, o'tmish ko'zgusi, milliy xotirasi bo'lgan tarixi, qadriyatlaridan mahrum bo'lgan xalq tafakkurida yana o'zidan, o'z millatidan g'ururlanish tuyg'usi yuzaga kela boshladi. Bu ruh Erkin Vohidov qalbidagi “jilg'a”ni daryo bo'lib toshishga, o'zligini topishga undadi. Bu yangi nafas milliy she'riyatga yangi ruh olib kirdi:

Men jilg'aman,

Daryo bo'lib to'lgim keladi[2].

She'r satrlaridan ufurib turgan maqsad va fidoyilik nafasi, ona yurtga o'g'lonlik sharafiga zamirida shoir maslagining qat'iyligi mujassam. Jilg'a obrazining daryo timsolida "kamolot kasb etishi" she'rda milliy o'zlikka intilish ruhini namoyon etadi: Bugun senga Faqatgina she'r bag'ishladim. Kerak bo'lsa, Jonni fido qilgim keladi.

Shoir "Buloq", "Ona-Yer" obrazlari orqali "Suvning kumush oynasida mehr timsoli bo'lib boqayotgan quyosh" tasvirini chizarkan, lirik qahramonning ichki ruhiyatini ifodalashga intiladi:

To'yib ichdim, suv bilan go'yo

Dilga singdi yurt muhabbati.

Tashnaligim qondi-yu, ammo

Yana ortdi qalb haroratim[3].

Shoir bu she'rda "qalb harorati" ortishiga sabab bo'lgan omilni "yashirin" qoldiradi. "Quyosh maskani" dostonida o'sha "yashirin dard"ga bir oz oydinlik kiritilgandek bo'ladi. Shoir she'rdan she'rga o'sib borarkan, bu bilan uning qalb tubidagi "botiniy dard" ham ulkanlashib boradi:

Men bir o'zbek o'g'li,

Kelib daf'atan

Qadimiy Sayhunning kanorasidan[4].

Moskva shahri manzaralari, osmono'par Ostankino shoir mehrini o'ziga torta olmaydi. Tashqariga boqarkan, dilidan "Quyosh G'arb ufqiga loyillab botar" satrlari o'tadi. Tungi shaharga tikilib, xayolga botadi. U Sharq ufqidan yuksalib asta yonginasiga kelib to'xtagan hilolning sohir qanotida uchayotgan nigohi olislarga tikiladi:

Men bu yuksaklikda xayol bilan mast,

Xayolning kiftida turibman o'zim.

Shoir o'rmonlar uzra nigoh tashlarkan, ular ortidagi kengliklar e'tiborini tortadi. Kutilmaganda obrazli fikr va yorqin muhokamalar birinchi o'ringa chiqadi:

Cho'l orti men uchun eng aziz makon

O'zbekiston deya atalgan o'lka...

Zaminning do'ppidek bir pallasida

Hiloliy nusxa gul –

Bu mening yurtim!

O'rmonlar, poyonsiz cho'llar nihoyasida dunyodagi eng aziz va muqaddas makon – O'zbekiston borligini muallif ichki bir g'urur va sevinch bilan ifoda etadi. "Oy ham ko'tarilar o'sha tarafdin" deya to'liqlanadi, "Olam markazining kiftida turib, Ona yurtim, Senga qilaman ta'zim" deb sadoqatini izhor qiladi. Shoirning xayolini Moskvaning sirli go'zalligidan ko'ra, yurt nafasi kelib turgan olis go'shalar, bolalik xotiralari o'ziga tortadi. "Ajodlaringa munosib bo'la oldimmi?" deya o'z umrini sarhisob qiladi. Ana o'sha "munosiblik" mohiyatida shoirning "botiniy dardi" o'zligini ko'rsatadi, nima uchun shoirlikni ixtiyor etganini bildiradi:

Buloq yer ostida kezib ko'p zamon.

Silqib zamin uzra chiqqanday bir kun,

Ko'ksimni to'ldirib yotgan dard, tug'yon

Oq qog'oz yuziga to'kildi butun.

"O'zgacha g'ulu" kitobxonni ham o'ylantiradi. She'rda "buloq" obraziga juda muhim yuk "ortadi", qalbdagi botiniy g'ulu va evrilishlarni ifodalaydi. Ko'p zamon "er osti"da, ya'ni qalb tubida kezib yurgan "buloq" bir kun zamin uzra qaynab chiqqanday shoir ko'ksini to'ldirib yotgan "dard", "tug'yon" oq qog'oz yuziga to'kiladi. Shoirning ma'yus yuragini kitob ovutadi, kemtik hayotini qalam to'ldirarkan unga murojaat qiladi:

Adl yo'lga boshla meni doimo

O'tkir bo'lsin mudom uchimg, qalamim.

Shoir "qalamini charxlarkan" umr kemasini bo'ronlar sari buradi, ulug' maqsadlar sohiliga intiladi. Yanglishgan chog'larida unga to'g'ri yo'l – "qutlug' e'tiqod qiblanomasi"ni

ko'rsatadi. "E'tiqod kompas" unga to'g'ri yo'l ko'rsatib borishiga ishonadi. Satrdan satrga o'sar ekan, she'riyat olami, hayot yo'llarida topgan hamdamu ustozlar to'g'risida to'xtaladi, ko'p zahmatlar so'ngida Alisher Navoiyning buyuk sehrini anglab yetadi:

Uni tanidimu elimni bildim,

Mahkamroq turganday bo'ldim zaminda.

Alisher Navoiy – millat timsoli, shoir Navoiyni anglash orqali millat o'zligini anglashiga ishora qiladi. Chunki Erkin Vohidov ushbu she'rda buyuk shoir obrazi orqali elini tanigani, shu zaminda mahkamroq turish lozimligini ifodalaydi. Bu mahkamlik mohiyatida millat ruhi namoyon bo'ladi.

Shoir o'z diyori tabiatini ifoda qiladi:

Bunda she'r bo'lib ochilar lola,

Bunda ertak bo'lib yetilar anor.

Erkin Vohidov vataniy mehrini yanada ehtiros ila ifoda etar ekan, Ryazan shoiri Sergey Yeseninga javdar boshog'i qancha aziz va mukarram bo'lsa, menga ham tuprog'imda o'sgan paxta chanog'i, shuncha chiroyli ko'rinadi, deydi. O'zbekiston zmini, tabiat noz-ne'matlari, bunyodkor xalqini ta'riflar ekan, uni "Quyosh maskani" deb ulug'laydi:

Muhabbat qo'yolgay qaysi ma'voga

O'z yurti qadrini bilmagan odam.

Shoir ushbu satrlar ila vataniy sevgi, onaga bo'lgan muhabbat, insoniy taqdirlar bilan bog'liq turfa voqealarni bir maslak ipiga tizarkan, unga bu maskanda hamroh bo'lgan qardoshiga yuzlansa-da, she'rni yozishdan ko'zlangan buyuk maqsadini ayon etadi:

Ufq manglayiga durday qadalgan

O'sha yulduzimiz yarqiroq bo'lsin.

Uning

Jahoniylar Erk

deya atalgan

Nurli kelajagi yaqinroq bo'lsin.

Shoir milliy o'zlik ifodasida shaxs erkigina emas, balki "Jahoniylar Erk" degan g'oyani olib chiqadi. "Nurli kelajak yaqin bo'lsin" degan ulug' murod bilan yakunlar ekan, bunda ham o'ziga xos poetik mahoratini namoyon etadi. Shoir bir kuni dunyo xalqlari "jahoniylar Erkka erishadi" degan murodni anglatadi. Davr nuqtai nazaridan qarasak, bu dostonda "hujum" ham, "himoya" ham o'z o'rnida hisobga olinadi.

Erkin Vohidov "Quyosh maskani" dostonida milliy o'zlik, milliy istiqloq sog'inchi bilan bog'liq "asl mohiyat", o'zlik ruhi she'rdan she'rga kuchayib boradi. Shoir "Tirik sayyoralar" she'rda derazadan tushgan tola nurda Somon yo'li tovlanishlarini ilg'aydi. Shu nur tolalarida minglab zarralarning ko'rinishi bilan shoir xayolidan "Har bir zarra, balki bir dunyo, Ehtimol, bir o'zga sayyora" degan o'y o'tadi. She'r mohiyatida aytmoqchi bo'lgan muhim g'oya uchun "Balki yashar ming-ming koinot. Hech ajabmas, shular birida mavjud bo'lsa taraqqiy, hayot" degan poetik qarashlar vositasida asos topadi. Poetik ifodalar asosida "o'z aytar so'zi" uchun yetarli mantiqiy vaziyat yaratganini his qilgan shoir asl mohiyatga ko'cha boshlaydi. Maqsad – she'rning tasvir qobiliyatini keskin sur'atda oshiradi, yuksak tafakkur nuqtasiga chiqadi:

Inson ko'kka boqar doimo,

Tintuv qilar osmonni faqat[5].

O'zi kabi xilqat izlayotgan inson olislarga raketalar yo'llaydi, osmonni tintuv taftish qiladi, ammo o'zi izlayotgan o'zga jonzot balki nur, balki ohang bo'lib u bilan yashashi mumkinligini tasavvuriga sig'dirolmaydi. Shoir o'zga jonzotlar haqidagi tasavvurini badiiy obraz asosida kuchaytiradi: O'zga hayot balki sokin tun Qamishlarning shovillashidir. Tongotarda balki lolagun Shafaqlarning loyillashidir. Va she'r qalbidagi eng muhim fikrni ochadi:

Hojat emas ko'kdan izlamoq,

Kemalarni qilmoq ovora.

Odamzodning o'z qalbidayoq

Yashayotir o'zga sayyora.

Shoir she'rdagi samoga boqib, o'zga sayyoralaridagi tafakkur egalari izlayotganlarga yuzlanib, "sen avvalo zaminga qara, zaminga boq" deya bejiz sirli shivirlamaydi. Zero, SSSR – "xalqlar turmasi" deya ta'riflangan zo'rlik va erksizlik asosiga qurilgan poyonsiz saltanatda o'z sayyorasi bilan yashayotgan xalqlar, millatlar, insonlar borligini ta'kidlaydi. Bular Tirik sayyoralar, chunki ularning qalbida erk va ozodlik umidi kamolga yetmoqda. She'rdagi tirik sayyora yetakchi obraz sifatida fikr mantiqini boshqaradi, shu tirik sayyorada turib o'zi bilan o'quvchi qalbi o'rtasida ishonch ko'prigini yaratadi.

"Sharqiy qirg'oq" she'ri mohiyat-e'tibori bilan botiniy dard, ezgu fikrni yuksak badiiyat darajasida ifodalagan poetik namunadir. Belarus adibi I. Novikova bag'ishlagan she'rdagi ikkinchi jahon urushi voqealarini tilga olingandek bo'lsa-da, aslida qalbidagi buyuk botiniy dard, iztirob, armonlarni tasvirlaydi. Shoir murakkab va qaltis zamon haqida "Bizga dushman edi hiyla va hadik, Yo'q edi mardlikdan o'zga himoyat", deb yozgan. Shoir go'yo tabiat qonuniga ko'ra Sharq va G'arb sohillariga xos jihatlarni taqqoslaydi, ikki mintaqaga xos qirg'oqlar holati shoiri ajablantiradi:

Sharqiy sohillardan hamisha tikroq,

Balandroq bo'ladi g'arbiy sohillar[6].

Shoir hayrati she'r davomida kuchayib boradi, G'arbiy sohillarda tepalar sharqiy sohillarda yotiqroq holda namoyon bo'ladi, biroq ularga boqib, shoir qalbidan "Nega bunday qilding, charxi kajraftor?" degan nido chiqadi:

Aslida zamin bir, tengdir sohillar,

Nohaqlik emasmi, garduni zolim!

She'r tobora asl mohiyatni ifoda etar, sharq, qirg'oq, jang tushunchalari bilan urush maydonlaridan "tinch va beozor" sharqiy sohillarga qaytadi: Go'yoki bo'lmagan u qonli bahor, Ohista chayqalib oqadi daryo. "Qonli bahor" obrazi bilan qonli o'tmishini unutgan, tarixiy xotirasidan mosuvo bo'lgan xalq kechmishini ifoda etib, "ohista oqayotgan daryo" timsolida zulmga asir bo'lgan millat taqdirini ko'rsatadi:

Holbuki, qirg'in jang davom etmoqda,

Holbuki, qurbonlar ruhi uyg'oqdir.

Hamon yov qo'rg'oni g'arbiy qirg'oqda,

Hamon bizning maskan sharqiy qirg'oqdir.

Shoirming she'rdan ko'zlagan asl maqsadi, uyg'otuvchi nolasi, ayni yuqoridagi satrlarda o'zligini oshkor etadi. Dardlar girdobida charx urar zamin, Majruh siynasidan silqib oqar qon. U har kun, har laha minglab odamin Sharqiy qirg'oqlarda bermoqda qurbon kabi tasvirlar barobarida yana voqelikni Sharqqa – Hindistonga ko'chiradi:

Bombay, Madorasda odam tumonat,

Yaratgan bandasi misli tuproqdir.

Ochlik har soniya ming jonga ofat,

Jizg'anak ko'chalar – sharqiy qirg'oqdir.

Shoir bani basharga, istilolar, zulmlar iskanjasida qolgan tinch osoyishta hayotni unutgan qit'alarda hamon g'anamlar uyg'oqligi, jafokash dunyo qismati to'g'risida nazmiy mulohaza yuritir ekan, endi uzil-kesil "Sharqiy qirg'oqdadir mening vatanim" degan asl haqiqatni oshkor etadi.

Dunyoda bor ekan nohaqlik, zulm,

Dunyoda bor ekan asorat, jaf,

Jangdamiz, bir boshda bor bitta o'lim,

Sharqiy sohillarda jonimiz fido.

Shoir to'rtlikda bu dunyo – nohaqlik, zulm, asorat maskani degan bo'lsa-da, bizga dunyo deb anglatilgan narsa ittifoqdan boshqa narsa emasligini ta'kidlaydi. Bunday jafokor tizimga qarshi kurashda bir boshga bir o'lim, deya muallif basharni jangga chaqiradi. Sharqiy sohillardagi uyg'ongan fidolik ruhi bilan: Shoir! Ey, tinchimas olovli yurak! Adolat yulduzi senga mayoqdir. Haq yo'lda fidoyi askarsan, demak, Sening qarorgohing – sharqiy qirg'oqdir, zulm qo'rg'onlarini yo'q qiluvchi kurashga chorlaydi:

Dunyoda bor ekan eng so'nggi mazlum,

Sharqiy sohillarda o'chmas mash'allar.

She'rdagi umumbasharga xos turfa voqeliklar, turfa hududlar tilga olingan bo'lsa-da, shoir uchun Sharqiy qirg'oq ona O'zbekistondir! Muallifning "Sharqiy qirg'oqdadir mening Vatanim" degan ichki ruh she'rdagi boshdan oyoq asar leytmotivi yanglig' jaranglab turadi. Shoir yaratgan obrazlar, turfa timsollar orqali sharqiy qirg'oqlarda o'chmagan mash'allar mazlum xalqlarni istiqloq sari boshladi.

Shoir ijodida badiiy tafakkurning poetik obrazlarda namoyon bo'lish shakllari, an'ana va yangilanish jarayonining o'ziga xosligi she'rdan she'rga rivojlanib bordi. Nafaqat E. Vohidov ijodida, balki millatparvar o'zbek she'riyatida ro'y bergan erk mohiyatini ifodalovchi yangi obrazlar milliy she'riyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, uni jahon she'riyati maqomiga ko'tardi. Bu XX asr she'riyatida o'ziga xos muhim adabiy-estetik hodisa bo'ldi.

Milliy she'riyatda mavzu va qahramon tanlash mahorati o'sdi, poetik ko'lamda ijobiy va salbiy jihatlari ifodasining obrazlardagi yangicha talqinlari yuzaga keldi. Mualliflarning milliy o'zlik nuqtai nazarini qat'iy qilishdi. Bu esa she'riyatda suujet va kompozitsiya mutanosibligi kuchayishiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Badiiy she'riyat tilining yangi ma'no qatlamlari ochilishi, uning intellektual darajasini yanada oshirib, qalbga, tafakkurga yo'naltirilgan poetik xulosalar yaratilishiga zamin hozirladi. Muhimi, jamiyatda shoirming shaxs sifatidagi, she'rning o'zlikni anglatuvchi ijtimoiy-badiiy-falsafiy maqomi ko'tarildi. Bu davr she'riyatida kuzatilgan betakror obrazlar, bir tomondan, she'r mohiyatini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, bu o'ktam va keskin qarashlar o'quvchi ongi va qalbida uyg'ongan milliy o'zlik qudratiga o'zgacha ruh bag'ishladi.

ADABIYOTLAR

1. Шарафиддинов О. Талант ва масъулият. // Сўз сеҳри . Тўплам. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006. – Б. 5.
2. Вохидов Э. Асарлар. 1-жилд. – Т.: "Шарк"НМАК, 2015. – Б. 9.
3. Вохидов Э. Асарлар. 1-жилд. – Т.: "Шарк" НМАК, 2015. – Б. 23.
4. Ўша асар. – Б. 367.
5. Вохидов Э. Асарлар. 2-жилд. – Т.: "Шарк" НМАК, 2015. – Б. 59-60.
6. Вохидов Э. Асарлар. 2-жилд. – Т.: "Шарк" НМАК, 2015. – Б. 134-137.
7. Prezident Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O'za, 2023 yil, 23 dekabr.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
9. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004.
10. E.Vohidov. Asarlar. 2-jild. – T.: "Sharq" NMAK, 2015. B. 134-137.
11. M.Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi. – T., 1981. 80 b.